

**MUSO TOSHMUHAMMAD OG'LI OYBEK ASARLARIDA IQTISODIY
MUNOSABATLARNING BADIY TALQINI****Xolbekova Feruzaxon Rasulovna**

(PhD).

Xusanboyeva Shaxzodaxon Foziljon qizi

Talaba.

Toshkent to'qimachlik va yengil sanoat instituti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19857192>

Anotatsiya. Ushbu maqolada Muso Toshmuhammad o'g'li Oybek sarlarining iqtisodiy jihatlarini tahlil qilinadi. Xususan, yozuvchining *Qutlug' qon* va *Navoiy* romanlari misolida jamiyatdagi ijtimoiy tengsizlik, mehnat munosabatlari, iqtisodiy tafovutlar hamda inson farovonligi masalalari yoritib beriladi. Maqolada Oybek ijodining iqtisodiy tafakkurni shakllantirishdagi o'rni ochib berilgan.

Kalit so'zlar: Oybek, iqtisodiy tahlil, ijtimoiy tengsizlik, mehnat munosabatlari, iqtisodiy tafovut, jamiyat, farovonlik, badiiy asar, *Qutlug' qon*, *Navoiy*.

Аннотация. В данной статье анализируются экономические аспекты произведений Muso Toshmuhammad o'g'li Oybek. В частности, на примере романов *Qutlug' qon* и *Navoiy* освещаются вопросы социального неравенства, трудовых отношений, экономических различий, а также благосостояния человека. В статье раскрывается роль творчества Ойбека в формировании экономического мышления.

Ключевые слова: Ойбек, экономический анализ, социальное неравенство, трудовые отношения, экономические различия, общество, благосостояние, художественное произведение, *Кутлуг кан*, *Навои*.

Annotation. This article analyzes the economic aspects of the works of Muso Toshmuhammad o'g'li Oybek. In particular, based on the novels *Qutlug' qon* and *Navoiy*, issues of social inequality, labor relations, economic disparities, and human welfare are examined. The article highlights the role of Oybek's творчество in shaping economic thinking.

Keywords: Oybek, economic analysis, social inequality, labor relations, economic disparities, society, welfare, literary work, *Qutlug' qon*, *Navoiy*.

O'zbek adabiyotining yirik namoyandalardan biri bo'lgan Muso Toshmuhammad o'g'li Oybek o'z asarlarida nafaqat badiiy-estetik g'oyalarni, balki jamiyat hayotining muhim ijtimoiy-iqtisodiy jihatlarini ham chuqur aks ettirgan. Uning ijodi orqali o'z davrining iqtisodiy muammolari, ijtimoiy tengsizlik, mehnat munosabatlari va inson farovonligi masalalari yoritiladi.

Ushbu maqolada Oybek asarlarining iqtisodiy mazmuni tahlil qilinadi.

Oybek asarlarida ijtimoiy tengsizlik va iqtisodiy tafovut muammosi muhim o'rin tutadi.

Xususan, uning mashhur romani "*Qutlug' qon*" romanida jamiyatdagi boy va kambag'al qatlamlar o'rtasidagi farq aniq tasvirlanadi. Asarda iqtisodiy resurslarning notekis taqsimlanishi natijasida yuzaga keladigan ziddiyatlar ko'rsatib berilgan. Bu holat iqtisodiy adolatsizlikning jamiyat taraqqiyotiga salbiy ta'sirini ochib beradi.

„Garchi men roman voqealari yuz bergan vaqtda hali kichik bola bo'lsam ham xalq turmushini ko'rdim. Kambag'allarning qorong'u va dim uy-joylarini, boylarning atrofi baland-baland devorlar bilan o'ralgan hashamatli imoratlarini, muzdek hovuzi bo'lgan bog'larini ko'rdim.

Men keyinchalik romanimda tasvir etilgan turmush va ijtimoiy munosabatlarning ko'pgina tomonlarini o'sha vaqtdayoq chanqoqlik bilan kuzatgan va tushungan edim" - deya yozgan adib.

Yozuvchi mehnat va ishlab chiqarish jarayonlariga alohida e'tibor qaratadi. Oybek qahramonlari ko'pincha halol mehnat orqali o'z o'rnini topishga intiladi. Bu esa mehnatning iqtisodiy qiymatini, ya'ni inson kapitalining muhimligini ifodalaydi.

Uning asarlarida mehnat – nafaqat tirikchilik manbai, balki insonning ma'naviy kamolotiga xizmat qiluvchi omil sifatida talqin etiladi.

"Navoiy" romani – Oybekning ikkinchi yirik va muhim ahamiyatga ega bo'lgan asaridir.

Asar o'zbek xalqining XV asrdagi – Alisher Navoiy davridagi hayotini aks ettirishga bag'ishlangan. Shuning uchun yozuvchi o'zining bu asarida shu davrning ulug' shoiri va mutafakkiri Navoiy siymosini yaratishga bel bog'lagan. Ushbu asarda Navoiyning iqtisodiy, siyosiy faoliyati ochib berilgan. Navoiy faqat adabiyot bilan shug'ullanib qolmay, balki Hirot va uning atrofida ko'plab madrasa, xonaqoh, kasalxona va masjidlar qurdirgan. Uning homiyligi tufayli ilm-fan va san'at rivojlanishiga katta hissa qo'shildi. Alisher Navoiy yangi lavozimda avvalo butun kuchini mamlakatda tinchlik va osoyishtalik o'rnatishga qaratdi. Vaqf ishlarini tartibga solishga kirishdi. Shaharlarda savdo-sotiqni, hunarmandchilikni rivojlantirishga katta ahamiyat beradi. Alisher Navoiy sa'yi harakati bilan qishloqlarda dehqonchilik madaniyati o'sib boradi. Shaharlar, xususan Hirot kun sayin obod bo'la boshlaydi.

Ma'lumki, Oybekning birinchi yirik asari – "Qutlug' qon" romani tarixiy mavzuda yozilgan bo'lsa ham, unda yozuvchi tarixiy shaxs obrazini yaratishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ymagan edi. Binobarin, "Qutlug' qon" muallifi "Navoiy" romanini yaratar ekan, endi o'z oldiga yangi vazifa – tarixiy shaxs obrazini yaratish vazifasini qo'ydi.

O'zbek adabiyotida tarixiy roman janrining shakllanishi va rivojlanishi bevosita Oybek ijodi bilan bog'liqdir. "Navoiy" romani nafaqat badiiy yuksakligi, balki tarixiy, ijtimoiy va iqtisodiy hayotni chuqur tasvirlagani bilan ham alohida ahamiyat kasb etadi. Asarda XV asr Movarounnahr hayoti keng qamrovda ochib berilib, iqtisodiy jarayonlar inson taqdiri va jamiyat taraqqiyoti bilan uzviy bog'liqlikda tasvirlanadi.

Roman markazida Alisher Navoiyning hayoti va faoliyati, xususan, uning Husayn Boyqaro hukmronligi davridagi davlat va jamiyat hayotidagi o'rni turadi. Shu tarixiy davr tasviri orqali muallif iqtisodiy hayotning asosiy yo'nalishlarini — savdo-sotiq, hunarmandchilik, dehqonchilik va ilm-fan rivojini badiiy talqin qiladi. Oybek iqtisodiy taraqqiyot masalasini faqat moddiy boylik bilan cheklamay, uni madaniyat va ma'naviyat bilan chambarchas bog'liq holda ko'rsatadi.

Asarda shahar va qishloq iqtisodiyoti o'rtasidagi farqlar ham muhim o'rin tutadi.

Shaharlar savdo va hunarmandchilik markazi sifatida rivojlangan bo'lsa, qishloqlarda dehqonchilik asosiy iqtisodiy faoliyat turi sifatida namoyon bo'ladi. Bu tafovut jamiyatdagi ijtimoiy tabaqalanishga ham ta'sir ko'rsatadi. Oybek ushbu jarayonlarni realistik tarzda yoritib, iqtisodiy tizimning murakkabligini ochib beradi.

Savdo aloqalari romanda iqtisodiy hayotning muhim omili sifatida tasvirlanadi. Buyuk Ipak yo'li orqali amalga oshirilgan savdo munosabatlari mamlakat iqtisodiy taraqqiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatgani ko'rsatiladi. Hunarmandchilik esa ishlab chiqarishning muhim sohasi bo'lib, unda mehnatkash xalqning roli alohida ta'kidlanadi. Bu orqali muallif oddiy insonlarning jamiyat rivojida o'rnini yuksak baholaydi.

"Iqtisodiyot va inson" masalasi romanning asosiy g'oyaviy yo'nalishlaridan biridir.

Asarda iqtisodiy qiyinchiliklarning inson ruhiyatiga salbiy ta'siri, ijtimoiy tengsizlik va adolatsizlikning kelib chiqishiga sabab bo'lishi badiiy obrazlar orqali ochib beriladi. Shu bilan birga, adolatli iqtisodiy siyosat yuritish, xalq farovonligini ta'minlash zarurligi g'oyasi ilgari suriladi. Navoiy obrazi aynan shu nuqtada xalqparvar, adolatparvar davlat arbobi sifatida gavdalanadi.

Oybek romanda iqtisodiy taraqqiyotning ilm-fan va madaniyat bilan uzviy bog'liqligini ham chuqur ochib beradi. Ilm rivoji, ma'rifat va madaniyatning yuksalishi iqtisodiy barqarorlikka xizmat qilishi ko'rsatiladi. Bu esa asarning nafaqat tarixiy, balki ijtimoiy-falsafiy ahamiyatini ham oshiradi.

“Navoiy” romani nafaqat tarixiy shaxs hayotini aks ettiruvchi badiiy asar, balki o'z davrining iqtisodiy hayotini keng va chuqur yoritgan muhim manbadir. Unda iqtisodiyotning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni, inson farovonligi bilan bog'liqligi va adolatli boshqaruv zarurati badiiy obrazlar orqali ta'sirchan ifodalangan. Bu jihatlar asarni bugungi kun uchun ham dolzarb va qimmatli qiladi.

Xulosa qilib aytganda, Muso Toshmuhammad o'g'li Oybek asarlari nafaqat badiiy qiymati, balki chuqur iqtisodiy mazmuni bilan ham ahamiyatlidir. Uning ijodi orqali jamiyatdagi iqtisodiy munosabatlar, ijtimoiy tenglik va mehnat qadri masalalari keng yoritilgan. Oybek asarlari bugungi kunda ham iqtisodiy tafakkurni shakllantirishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Muso Toshmuhammad o'g'li Oybek. “Qutlug' qon” (roman). – Toshkent: Yoshlar matbuoti, 2019.
2. Muso Toshmuhammad o'g'li Oybek. “Navoiy” (tarixiy roman). – Toshkent: Sahhof, 2025.
3. Karimov N. Oybek. Toshkent. G'. G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1985.
4. Saidnosirova Z. Oybegim mening. T.: Sharq, 1994